UDK: 37.015.3:004.738 **DOI: 10.56292/SJFSU/vol29_iss3/a195**

AXBOROTLASHGAN JAMIYATDA TA'LIM VA TA'LIM AXBOROTLASHUVINING DIALEKTIK ALOQADORLIGI MUAMMOSINI O'RGANISH

ИЗУЧЕНИЕ ПРОБЛЕМЫ ДИАЛЕКТИЧЕСКОЙ ВЗАИМОСВЯЗИ ОБРАЗОВАНИЯ И ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ ИНФОРМАЦИИ В ИНФОРМАЦИОННОМ ОБЩЕСТВЕ

STUDYING THE PROBLEM OF THE DIALECTICAL RELATIONSHIP OF EDUCATION AND EDUCATIONAL INFORMATION IN THE INFORMATION SOCIETY

Ravshanova Gulchera Mahammatovna[1]

[1]**Ravshanova Gulchera Mahammatovna** − Buxoro davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Аннотация

Maqolada har qanday jamiyatda axborot hamisha mamlakat taraqqiyotining ko'zgusi, kishilarning ongi, dunyoqarashi, siyosiy saviyasining shakllanishida asosiy vosita bo'lib xizmat qilib kelgan. Axborot-ta'lim muhitini yaratish ta'limda axborotlashtirish jarayonini rivojlantirishning obyektiv natijasi bo'lib hisoblanadi.

Аннотация

В статье в любом обществе информация всегда служила зеркалом развития страны, главным инструментом в формировании сознания людей, мировоззрения, политического уровня. Создание информационно-образовательной среды является объективным результатом развития процесса информатизации образования.

Abstract

In the article, in any society, information has always served as a mirror of the country's development, the main tool in the formation of people's consciousness, worldview, and political level. Creating an information-educational environment is an objective result of the development of the process of informatization in education.

Kalit so'zlar: *Inson qadri, axborot xurujlari, dialektika, ta'lim-tarbiya, yoshlar tarbiyasi, komillik, ma'naviy soha rivoji, inson haqiqiy baxt-saodatga erishishi.*

Ключевые слова: *Ценность человека, информационные атаки, диалектика, образование, воспитание молодежи, совершенствование, развитие духовной сферы, достижение человеком истинного счастья.*

Key words: *Human value, information attacks, dialectics, education, youth education, perfection, development of the spiritual sphere, human achievement of true happiness*.

KIRISH

Axborotlashgan jamiyatda axborot texnologiyalarini uzluksiz ta'lim tizimiga tadbiq qilish yildan yilga keng ko'lamda amalga oshirilmoqda. Axborotlashtirish jarayonida pedagogik hamjamiyat tomonidan ko'p sonli axborot resurslari ishlab chiqilmoqda, lekin, bu ishlarni etarli deb bo'lmaydi. O'qitishning turli shakllari bilan birgalikda va birlikda ta'limni takomillashtirish uchun yangi imkoniyatlar paydo bo'ldi. Bunday imkoniyatlardan biri sifatida axborotli yondashuv e'tirof etiladi.

Pedagogik tadqiqotlarda axborotli yondashuvning asosiy mazmuni ta'lim jarayonining aynan axborotli tomonini ajratib olish va o'rganishni ko'zda tutadi. Axborotli yondashuvning xususiyati, yuqorida keltirilganidek, turli sohalardan olingan ilmiy bilimlarning integratsiyasini aks ettiradi. Axborot-ta'lim muhitini yaratish ta'limda axborotlashtirish jarayonini rivojlantirishning ob'ektiv natijasi bo'lib hisoblanadi. Xalqaro tajribalarning ko'rsatishicha, oddiy yozishma asosidagi kommunikatsion axborot-ta'lim muhiti ijobiy pedagogik natijaga olib keladi. Turli shaharlar, mintaqalar va davlatlar ta'lim oluvchilarining tarmoqdagi birgalikdagi o'quv faoliyatini tashkil etishning asosiy shakli elektron, axborot-didaktik vositalar hisoblanadi. Har qanday muammo yechimi integratsiyalashgan bilimni talab etadi.

Shundan kelib chiqib 2022-yil 22-yanvarda mamlakatimiz rahbari Oliy majlis va senatning qo'shma majlisida axborotlashgan jamiyatda ta'limning o'rni beqiyosligini takidlab "Ta'lim sifatini oshirish-Yangi O'zbekiston taraqqiyotining yakkayu-yagona to'g'ri yo'lidir.

Yusuf Xos Hojib bobomiz aytganlaridek:

"Zakovat bor joyda ulug'lik bo'ladi,

Bilim bor joyda buyuklik bo'ladi".

Shuning uchun ushbu sohada boshlagan islohotlarimizni davom ettirishimiz, ta’lim dargohlariga borib, o‘qituvchi va murabbiylar bilan ko‘proq muloqot qilib, o‘quv-tarbiya ishlari sifatini oshirish bo‘yicha ular qo‘ygan masalalarni birgalikda hal etishimiz kerak.

Biz Yangi O‘zbekistonni “ijtimoiy davlat” tamoyili asosida qurishni maqsad qilyapmiz. Buni Konstitutsiyada mustahkamlashimiz kerak.

Ijtimoiy davlat bu, eng avvalo, inson salohiyatini ro‘yobga chiqarish uchun teng imkoniyatlar, odamlar munosib hayot kechirishiga zarur sharoitlar yaratish, kambag‘allikni qisqartirish, demakdir.

Shu bois, birinchi navbatda, e’tiborni Yangi O‘zbekiston uchun eng katta investitsiya bo‘lgan ta’limni qo‘llab-quvvatlashga qaratamiz.

“Najot-ta’limda, najot-tarbiyada, najot-bilimda. Chunki, barcha ezgu maqsadlarga bilim va tarbiya tufayli erishiladi””[1] deb takidlab o‘tgan edilar.

Axborotlashgan jamiyatda axborotlashuv dialektika bilan bevosita aloqador bo‘lib dialekteka haqidagi qadimgi falsafiy bilimlar rivojlanib borishi bilan uning mazmuni ham boyib boradi va hosil bo‘lgan yangi bilimlar jamiyatga tarqalib jamiyatning axborotlashuviga olib keladi.

Axborot bu lotincha information-tanishtirish, tushuntirish; arabchada esa-axbor-xabarlar, ma’lumotlar degan ma’noni bildiradi. Falsafada qadim zamonlardan buyon qo‘llanilib kelinayotgan, etimologik jihatdan (lot. Informatio) tanishtirish, xabar berish, tushuntirish ma’nolarini anglatadigan “informatsiya” yoki “axborot” ancha murakkab va serma’no tushuncha.

Axborot to‘g‘risidagi birinchi ma’lumotni amerikalik olim R.Xartli 1928 yilda texnik aloqa kanallari bo‘ylab tarqatuvchi ma’lumotlarning miqdoriy mezonini belgilash uchun ilk marotaba axborot tushunchasini ilmiy muomalada qo‘lladi[2]. Ammo “axborot” tushunchasiga 1948 yildan boshlab jiddiy e’tibor qaratildi.

“Axborot” tushunchasiga atroflicha yondashish va aniq miqdor o‘lchovi paydo bo‘lishi axborotni o‘rganishga katta qiziqish uyg‘otdi. XX asrning 60-yillaridagi ko‘p tadqiqotlar axborotni qidirish muammolari bilan bog‘liq bo‘lib, ayni shu davrda axborotlarni qidirish tizimi va usullari yaratildi. Axborotni mustaqil o‘rganish mumkin, degan g‘oya ilm-fanda axborot har qanday tuzumni boshqarish jarayoniga, mustahkamligi va yashay olishini ta’minlashga bevosita aloqadorligini isbotlagan kibernetika bilan bir davrda paydo bo‘ldi. Kibernetikaning kelib chiqishi va rivojlanishi bu tushunchaning “aloqa” va “boshqaruv” tushunchalari bilan birga keng qo‘llanishiga olib keldi. Kibernetikaning asosiy bo‘limlaridan biri axborot nazariyasi bo‘lib, unda axborotni qayta ishlash va tarqatish usullari tadqiq etiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Hozirgi kun jamiyatida axborot nazariyasi ilmiy-metodologik jihatdan ham taraqqiy etgan bo‘lib, unga J. Fon Neyman, N.Viner, K.Shenon kabi olimlar asos solganlar. Ular bir-biridan xabarsiz holda axborotning statistik-miqdoriy jihatlarini aniqlaganlar. Bu o‘rinda K.Shenonning “Aloqaning matematik nazariyasi” asari katta rol o‘ynagan. Ayni shu davrlarda N.Vinerning “Hayvonot va mashina”, “Kibernetika yoki boshqaruv” asarlari e’lon qilingan edi. Bu asarlarda asosan axborot nazariyasi haqida fikr yuritiladi. Axborot nazariyasining falsafiy-metodologik muammolari orasida markaziy o‘rinni egallaydigan masalalaridan biri “axborot” tushunchasidir.

Shu sababli ham “axborot-bilim” muammosi XX asrning 30-50 yillarida shakllana boshlandi: fanda informatsion xususiyatdagi xalqaro va davlat ichidagi nashrlarning yaratilishi; sun’iy yaratilgan tizimda axborot va boshqaruv haqida nazariy ishlarning paydo bo‘lishi (“Kibernetika” N.Viner, axborot nazariyasi, kibernetika, aloqaning matematik nazariyasi kabi K.Shennon ishlari); “axborot” tushunchasi va uni umumilmiy tushuncha guruhiga o‘tishi, keyinroq falsafiy kategoriya doirasiga kirishi; avtomatlashtirilgan informatsion qidiruv tizimi, bilimni avtomat saqlash g‘oyasi. Bu davr bilim hajmi eksponental ortishi va axborot eskirish darajasini ortib borayotganligi bilan xarakterlanadi.

Kuchli bilimga ega bo‘lgan insonlar o‘z davlatlarini ham kuchli qilishga qodir bo‘ladilar. Biz hech qachon erkini qo‘ldan boy bermaydigan avlodni tarbiyalashimiz zarur. Shaxsiy fikrga ega bo‘lgan yoshlar o‘zlari tanlagan sohalarni yangi fikrlar bilan boyitadi. Qiziqish ishonchni shakllantiradi, ishonch esa bilimga yetaklaydi. O‘ziga ishonch muvaffaqiyat garovidir. O‘zini qobiliyatsiz va kamsitilgan deb his etish xotirani zaiflashtiradi va boshqa surunkali asab xastaliklariga olib keladi. Bu esa jamiyatda fuqarolarning notinchligi va xastalanishiga olib keladi.

Cheklanmagan miqdordagi erkinlik darajalariga ega bo‘lgan va har bir inson uchun aniq harakat yo‘nalishini belgilamaydigan sharsimon model, asosan, virtual ta’limga mos keladi.

“Fikr parvozi” yoki hissiy tuyg‘ular ham odamning jismoniy ko‘rish uchun ko‘rinmaydigan narsalar bilan ta’sir o‘tkazish qobiliyatini oshiradi. Kengayadigan, o‘zaro aloqada bo‘lgan, bir-birining ustidagi virtual maydonlarning umumiyligi-bu butun dunyoni unga ko‘rinadigan va kirish imkoniyatini asta-sekin to‘ldiradigan idrok etuvchi odamning qiyofasidir.

Insonning tashqi olam sohalarini bilishiga uning o‘zini-o‘zi bilishini, ya’ni o‘z harakatlarini, holatlarini va o‘zgarishlarini aniqlash uchun refleksiv faoliyatni qo‘shish kerak. Virtual ta’limning fazoviy modeli tashqi bilimlarni ichki bilan bog‘laydi, chunki ular o‘zaro birlashishda bir va ajralmas bo‘lib chiqadi. Aytishimiz mumkinki, bu holda qadimgi odamlar bilan tuzilgan ahd amalga oshadi: o‘zingizni bilsangiz, butun dunyoni bilib olasiz.

Atrofdagi va uning ichidagi narsalarning ma’nolari ustida “ishlash” orqali, odam o‘zi uchun mo‘ljallangan maydonni xuddi o‘zi egallab olganday to‘ldiradi. Ichki olam tashqi tomondan boyitiladi, tashqi ichki bilan to‘ldiriladi. Inson dunyoga aylanadi, dunyo odam bilan to‘ldiriladi. Insonning maqsadi o‘zi tarkibidagi bunday tarkibni ochish va amalga oshirish, tashqi makonga aylanishi uchun uning ichki makonini to‘ldirishdir. Bu o‘qituvchilar, talabalar va o‘rganilayotgan ob’ektlarning odatdagi yuzma-yuz munosabatida bo‘lishi mumkin. Ta’lim sohasida masofadan o‘qitish texnologiyalari kunduzgi ta’lim imkoniyatlarini kengaytirish, o‘quvchilar, o‘qituvchilar, mutaxassislar, shuningdek, bir-biridan uzoqda joylashgan axborot massivlarining o‘zaro qulayligini oshirishga imkon beradi.

Umuminsoniy va milliy qadriyatlar, xalqimizning madaniy merosi, milliy g‘urur, urf-odatlar, axloqiy me’yorlar Vatanga bo‘lgan mehr, o‘zlikni anglash tuyg‘ularini shakllantiradi. Bu omillar yoshlarda hozirgi nihoyatda murakkab ijtimoiy sharoitda o‘z yo‘lini to‘g‘ri tanlab olish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Darhaqiqat, jamiyatning barqarorligi ham har jihatdan unda istiqomat qiluvchilarning o‘zaro munosabatlar tizimiga, o‘zaro aloqalariga, muomala va munosabatlar dialektikasiga ham birdek bog‘liq bo‘ladi.

Tabiatga razm soladigan bo‘lsak, undagi har bir mavjudotning o‘zaro muloqotini his etish mumkin. Gullar o‘zining yoqimli iforini atrofga taratib dilni xushnud etsa, qushlar o‘zining xonishi orqali tabiatga o‘zgacha joziba baxsh etib, o‘zaro muloqot usulini vujudga keltiradi. Insonlarda esa bu jarayon turli xildagi ularning ichki olamidan, ruhiy holati, xarakter-xususiyatlaridan kelib chiqib, o‘zini o‘rab turgan jamiyat a’zolariga nisbatan vujudga keladi. Muomalani yaratilayotgan asar deb qaraydigan bo‘lsak, uning qaydarajada qalbga iliq kirib borishi samimiylik baxsh etishini ta’minlash faqatgina ijodkorlargagina bog‘liq hisoblanadi. Yoqimli muloqot ham inson qalbiga hech qanday burilishsiz yo‘l oladi. Shu jihatdan inson o‘zining u yoki bu darajadagi muomalasi uchun o‘zi o‘z ijodkorligiga, ya’ni o‘z muomala madaniyatiga ega bo‘lishga intilishi lozim. Ayniqsa, ta’lim tizimida faoliyat olib boradigan har bir inson bu masalaga jiddiy qarashi talab etiladi. Chunki, bugungi ilm talabi har kunlik xush muomalani talab etadi. Ilm istagan har qanaday qalb, albatta chiroyli muomalaga, go‘zal nutq va ifodaga oshufta bo‘ladi.

Rivojlangan davlatlar tajribasini kuzatadigan bo‘lsak, ularda ilm-fanni yuksaltirishga jiddiy e’tibor qaratiladi. Davlat tomonidan katta mablag‘lar ajratiladi. Mamlakatning istiqboldagi rivojlanishi ilm-fan yutuqlari asosida belgilab olinadi. Qarorda bu masalaga alohida e’tibor berilgan.

O‘tmishda ham olimlar, ijod ahli faoliyati davlat rahbarlari tomonidan qo‘llab-quvvatlangan. Shu ma’noda, fan xalqaro globalizatsiya sharoitida ijtimoiy boshqaruv institutiga aylanib bormoqda deyish mumkin. Shunday ekan, ilmiy faoliyatni boshqarish, uning asosi bo‘lgan ilmiy bilish jarayonining ichki qonuniyatlarini aniqlash zaruriyati paydo bo‘lishi tabiiy.

Kompyuterlarning paydo bo‘lishi va dasturlar yordamida masalalar yechish bilishning yangi turlarini kelib chiqishiga sabab bo‘ldi. Bunday turlardan biri sifatida intellektual tizimni ko‘rsatish mumkin. Intellektual tizimning asosiy tamoyili shundaki, biror masalani yechishda u insonning mantiqiy fikrlash usulini qo‘llaydi. Ko‘pincha kompyuterda masalalarni yechishning optimal variantlari tanlanadi. Optimal variantni tanlashdan maqsad shuki, agar masalani to‘g‘ridan-to‘g‘ri yechish zarur bo‘lsa, unga juda ko‘p vaqt sarf bo‘ladi. U mantiq qonunlarini, matematik munosabatlar, murakkab masalani maydaroq masalalarga ajratish yo‘llari yoki avval uchragan masalalarga o‘xshash mulohaza yuritishga intiladi. Bu yerda inson fikrlashning moslashuvchanligi va ko‘p qirraligi namoyon bo‘ladi. Modomiki shunday ekan, murakkab masalalarni yechishda inson

ma’lum qonuniyatlarni bilishga intiladi hamda shu asnoda yechimni izlaydi. Bunday sharoitda inson matematik teoremalar yoki tajribadan olingan qoidalardan foydalanishi, murakkab masalalarni sodda masalalarga ajratish va boshqa usullarni tadbiq etishga harakat qiladi.

NATIJA VA MUHOKAMA

Bugungi kunda intellektual vazifalarni hal qiladigan anchagina dasturlar yaratilgan. Har bir dasturni yetarlicha aniq, xato qilmaydigan qilib yaxshilash, ularni takomillashtirish kelajakda hal qiluvchi masalalardan biridir. Insoniyat, iste’dod egalari kompyuterning beminnat xizmatidan foydalangan holda internet tarmoqlaridan o‘ziga kerakli bo‘lgan ma’lumotlarni olishda, elektron pochta tashkil qilib o‘zining elektron virtual kutubxonasini tashkil etishda, o‘qitishning masofaviy usullarini amalayotga joriy qilishda, elektron savdo yoki bank tizimlari ishini avtomatlashtirishda, elektron o‘quv qo‘llanmalari va mul’timediali darsliklar ishlab chiqishda, hattoki jamiyatimizni elektron boshqarishda, telemeditsinada va yangidan-yangi texnologik muammolarni hal qilishda sun’iy intellektning imkoniyatlari cheksizdir. Sun’iy intellekt yordamida inson qo‘li yetmagan, ko‘zi ko‘rmagan (hujayralar ichida bo‘layotgan jarayonlar, suv ostida va atmosferada bo‘layotgan hodisalar)ni kompyuter yordamida osongina hal qilishga safarbar etilmoqda.

Ma’lumki, insonning tajovuzkorlikka, ya’ni agressiv xulq-atvorga moyilligi asosan uning individual rivojlanish xususiyatlari bilan belgilanadi. Agressiv xulqning paydo bo‘lishida ko‘p omillar, jumladan yosh individual xususiyatlar, tashqi jismoniy, ijtimoiy sharoitlar va hokazolar ishtirok etadi. Olimlarning fikricha, shaxsda agressiv xulq-atvor shakllanishiga bevosita ijtimoiy muhitning ta’siri kuchli ekan. Agressivlik, tajovuzkorlik salbiy xulq ko‘rinishlaridan biri bo‘lib, subyektning-subyektga bo‘lgan munosabati tushuniladi.

Psixologiyada “agressiya” tushunchasi turlicha talqin qilinadi. Ba’zi olimlar agressiyaga salbiy baho bersalar, ba’zilari ijobiy baholaydilar. Agressiya-bir kishi tomonidan ikkinchi bir kishiga ko‘rsatilgan jismoniy harakat yoki tahdid bo‘lib, u ikkinchi kishining erkinligiga tahdid soladi.

Adabiyotlar tahlilining ko‘rsatishicha, bu muammo bo‘yicha olingan tadqiqot natijalariga qarab ikki xil xulosa kelib chiqishi mumkin: ba’zi tadqiqotchilar kompyuter o‘yinlari o‘smirda agressiv xulq rivojlanishiga sabab bo‘ladi degan fikrni olg’a sursalar, ba’zilari bu fikrga mutlaqo teskari bo‘lgan fikrni aytadilar, ya’ni ularning fikricha, kompyuter o‘yinlari bilan o‘smirning agressivligi o‘rtasida hech qanday bog’liqlik yo‘q, balki kompyuter o‘yinlari agressiyaning pasayishiga olib kelar ekan.

Biz ham kompyuter o‘yinlari bilan o‘smirlar agressiyasi o‘rtasidagi bog’liqlikni o‘rganish maqsadida ilmiy tadqiqot ishlarini olib bordik va kompyuter o‘yinlari ta’sirida o‘smirlarda paydo bo‘ladigan agressiya bo‘yicha to‘liqroq ma’lumot olishga muvaffaq bo‘ldik.

A. Bass-A. Darki metodikasi bo‘yicha olingan natijalar tahlili o‘smirlarda agressivlikka moyil ekanliklarini va bu o‘z navbatida bunday o‘smirlarda tajovuzkor xulq rivojlanishi, ijtimoiy moslashuvni qiyinlashishi mumkinligini ko‘rsatdi.

Agressiv kompyuter o‘yinlari kinoga yoki kitoblarga qaraganda odamning ruhiyatiga tez ta’sir qiladi. Kompyuterda o‘ynab turib odam o‘zi qaror chiqaradi, kinoda esa u faqat kuzatuvchi bo‘ladi xolos. Har qanday film 2 soat davom etadi, ammo bola kompyuter o‘yinlari oldida 100 soatlab o‘tirishi mumkin. Olib borilgan kuzatishlarning natjasiga ko‘ra filmda odamlarni syujetning rivojlanishi qiziqtiradi.

Mixon universiteti gumanitar va tabiiy fanlar kolleji professori Akio Mori 6 yoshdan 29 yoshgacha bo‘lgan 240 odamning miyasining faolligi o‘rtasida tajriba olib borgan. Tajribadagilarni Mori 3 ta gruppaga ajratadi. Birinchi guruhga kompyuter umuman o‘ynamagan yoki onda-sonda o‘ynagan kishilarni, ikkinchi guruhga o‘rtacha o‘ynovchilarni, uchinchi guruhga ashaddiy o‘ynovchilarni kiritadi. Professor virtual o‘yinlarning miyaga ta’siri va buning natijasida odamning bu ta’sirga emotsional va ijodiy javobini kuzatadi. Mori alfa va beta ritmlarining muvofiqligini o‘rganadi (1-chisi harakatsizlikni, 2-chisi miyani old peshona qismining aktiv ishini ko‘rsatadi). Natijada u shuni isbotladiki, kompyuterga qiziqmaydigan odamlarda beta-ritmlar alfa-ritmlarning ustidan hukmron bo‘ladilar. Normal kam o‘ynasalar ham hech narsa o‘zgarmaydi. Ikkinchi guruhda o‘yin vaqtida beta ritm kuchsizlanadi. Uchinchi guruh video o‘ynovchilarda esa kompyuterdan uzoqda bo‘lsalar ham, ularda alfa-ritmlarning ustuvorligi hukmron bo‘ladi.

Kompyuter o‘yinlari miyaning ko‘rish va harakatlanishga javob beradigan qismiga ta’sir qiladi. O‘yinlar odamning xulqi, emotsiyasi va o‘qishga javob beradigan bosh miya po‘stlog’ining old

peshona qismi ya’ni, aql sohasini o‘sishiga zarar yetkazadi. Kompyuter o‘yinlari bilan parallel ravishda aqliy salohiyatlar ham pasayib boradi. Shuni aytish kerakki labaratoriya miyani old peshona qismining ishlamasligi neandertal odamni vahshiy va ta’sirchan qilib qo‘yadi, katta jamoada yashashni xohlamaydi. yoshlar ongida turli zararli oqimlarga nisbatan “g’oyaviy immunitet”ni shaklantirish va yoshlarga ilm va tafakkur odamlar qalbiga nur, ongiga ziyo, xonadoniga fayz-baraka keltiradigan buyuk mo‘jiza ekanligini anglatishdir.

Umumbashariy miqyosda zamonaviy fan yutuqlari, ilmiy kashfiyotlar va ilmiy tafakkur natijalariga bo‘lgan ehtiyoj ortib bormoqda. Zero, mamlakatimizda yangicha tafakkurni shakllantirish, yuksak ma’naviy, faol ilmiy-ijodiy tafakkur egalarini tarbiyalash, ularni ta’lim berish kechiktirib bo‘lmas masaladir. Shu ma’noda, fan halqaro globalizatsiya sharoitida ijtimoiy boshqaruv institutiga aylanib bormoqda deyish mumkin. Shunday ekan, ilmiy faoliyatni boshqarish, uning asosi bo‘lgan ilmiy bilish jarayonining ichki qonuniyatlarini aniqlash zaruriyati paydo bo‘lishi tabiiy.

Hozirgi davr zamonaviy globalizatsiya jarayonlarida axborot jamiyatning strategik resursiga aylanmoqda. Inson tafakkuridagi plyuralistik fikrlarni o‘zida to‘laqonli ifodalovchi yagona tarmoq bo‘lgan internetda kishilarning oldinga intilishi, ilgarilash, dunyoviy xabardorligini kengaytiruvchi faoliyat bo‘lishi bilan birga, bir tomondan, axborotlashuvning immanent holda rivojlanishi va ikkinchi tomondan, jamiyatni modernizatsiyalashtirish oqibatlari hali nima bilan tugashi noma’lum bo‘lgani bois, ba’zi bir noxush natijalarni keltirib chiqarish xavfi ayon bo‘lmoqda. Bunday hollarda ilmiy bilish jarayoni katta axborot uyumidan muhim axborotni tanlab olish, uni anglab yetish, samarali faoliyat olib borish murakkab muammolarning yechimini topish, berilgan ma’lumotlardan foydali umumlashtirishlar qilish, o‘rganilgan bilimlar majmuini tartibga keltirish imkonini beradi. Talabalar o‘z mutaxassis fanlarini mukammal egallashlari uchun barcha fanlarni imkoni boricha axborot texnologiyalarini qo‘llab, multimediyalar yordamida o‘tish davr taqozosiga aylandi.

Axborotlashtirish albatta, jamiyatda yangi zamonaviy qurilmalar va o‘quv vositalarini yaratishni talab qiladi. Bunga hozirda yaratilayotgan elektron o‘quv qo‘llanma, elektron darslik, elektron kutubxonalar misol bo‘la oladi. Hozirgi vaqtda o‘quv jarayonini interaktiv elektron o‘quv kurslar yordamida olib borilishiga talab juda ham katta.

Ta’limning axborotlashtirilgan jamiyatida nafaqat ijtimoiy rivojlanishning, balki dunyo iqtisodiyotining iqtisodiy o‘sishida ham hal qilivchi omilga aylanmoqda. Bunda axborotlashgan jamiyatda ta’lim va ta’lim axborotlashuvining dialektik aloqadorligi asosiy o‘ringa ega.

Dialektika (yunon tilidan olingan bo‘lib, suhbat olib borish, bahslashish san’ati) borliqnining mavjudligi, Jamiyat rivoji va uning taraqqiyoti haqida ijtimoiy-falsafiy ta’limotdir, hamda jarayonlarni va voqealarni bilish va unga asoslangan tafakkur uslubi.

Dialektik tafakkur voqelikni bilish jarayoni sifatida inson jamiyat bilan bog’liklikda paydo bo‘lgan.

“Dialektika” so‘zi ilk bor Suqrot tomonidan qo‘llanilgan. U dialektikani bir-biriga zid qarama-qarshi fikirlar to‘qnashuvi orqali haqiqatni topish san’ati deb bilgan.

Geraklid Dialektikani muttasil harakatdagi olam ichki jihatdan ziddiyatli va u doimiy vujudga kelishi, rivojlanishi hamda tanazzulga yuz tutish qarama-qarshiliklardan iborat deb hisoblagan.

O‘rta asrlarda XVIII asrgacha Dialektikani Mantiq fani sifatida tushunib kelishgan.

Platon Dialektikani narsalarning ideal mohiyatini bilish maqsadida tushunchalarni bo‘lak-bo‘laklarga ajratish, so‘ng bir-biri bilan bog’lash uslubi hisoblangan.

Kuzalik va J.Bruno Dialektikani qarama-qarshiliklarning mos kelishi haqidagi ta’limot deb ta’kidlagan.

Kantnit fikricha Dialektika voqelikni tajriba, hissiy bilimlar orqali emas, balki sof tafakkur asosi ekanligini takidlagan.

O‘z vaqtida buyuk fizik Lui de Broil, “bizning bilishimizning har bir yutug‘i, hal etishga qaraganda, ko‘plab muammolarni keltirib chiqaradi”[4,317] - deb bejiz ta’kidlamagan edi.

Materialistik dialektikani ijtimoiy-ma’naviy hayotga joriy etilishi oqibatida “dialektika” o‘z mohiyati va mazmunidan begonalashdi. Voqea-hodisalarni o‘rganishda unga bir tomonlama baho berishga, ko‘pgina olimlarning ijtimoiy-ma’naviy hayoti bilan, bir-biri bilan bog‘liq umumiy qonuniyatlarini hisobga olmaslikka sabab bo‘ldi. Eski steriotiplar o‘rnida yangicha falsafiy g‘oya va qarashlar qaror topa boshladi. Aks holda, falsafiy ongda o‘zgarishlarning sodir bo‘lishi, o‘z negiziga

qo‘yilmas edi, hamda kutilgan samaraga erishish qiyin bo‘lar edi. Interaktiv elektron o‘quv kurslar yaratish katta mahorat talab qiladigan va uzoq davom etadigan jarayon.

Shundan kelib chiqib axborotlashgan jamiyatda yoshlarni doimiy ravishda zamon bilan mos ravishda tarbiyalab borish va ularga ta’lim berib uchun O‘zbekistonda 2023 yil sentabr oyidan boshlab birinchi sinf o‘quvchilariga informatika darslarini qo‘yilishi bu albatta quvonarli holat.

Raqamli texnologiya (lot. digital technology)-hisoblash texnikasi yordamida yaratilgan o‘zining dasturiy ta’minotiga ega texnologiya hisoblanadi.

Axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi raqamli texnologiyalarning turli sohalarga kirib borish imkonini yaratdi.

XXI asrning ikkinchi o‘n yilligida axborotlashgan jamiyatdan raqamlashgan jamiyatga o‘tishda juda katta sakrash bo‘ldi desak mubolag‘a qilmagan bo‘lamiz. Oxirgi ikki yilda dunyoda hukm surayotgan pandemiya sharoiti bu jarayonni yanada tezlashtirdi.

Globalizasiya dunyo xalqlarining asosiy rivojlanish omili ekanligi alohida ta’kidlanib o‘tildi. Samet qabul qilgan deklorasiyada insoniyat uchun muhim bo‘lgan oltita qadriyat ko‘rsatib o‘tilgan. Ozodlik, tenglik, birdamli, tabiatga hurmat, mas’uliyat bilan birga millatlararo munosabatlarning eng yuksak omili sifatida diniy bag’rikenglik ham tilga olndi.

Axboroni olishda yangi axborot texnologiyalari (IT) vositalarining o‘rni kattadir. Birinchidan elektron ta’lim an’anaviy ta’lim o‘rnini bosolmaydi degan stereotipdan voz kechish lozim. Ikkinchidan axborotlashgan jamiyatda raqamli ta’limning barcha afzalliklariga qaramay, mazkur texnologiya hali ham insonlar (o‘qituvchilar) o‘rnini bosa olmaydi. Uchinchidan, yangi texnologiyalar har doim o‘zgarishlar bilan birga keladi va hamma odamlar ham bu o‘zgarishlarni qabul qilishga tayyor emas. Oliy dargohdagi ayrim professor-o‘qituvchilar o‘zgarishlarga tayyor emasligi, oqibatda isbotlangan an’anaviy usullarni afzal ko‘rishlari mumkin. Yangilikdan qo‘rqish inson tabiatidir va ko‘pchilik uchun umumiydir. Biroq bu yerda o‘qituvchilar tashabbus ko‘rsatishi va talabalarni rag‘batlantirishi muhim ahamiyatga ega. Pedagoglar eng avvalo yangi raqamli ta’lim texnologiyalarni birinchi bo‘lib o‘zlashtirishlari kerak. Zamonaviy raqamli vositalardan foydalanish talabalarga qanday foyda keltirishini ko‘rsatadigan barcha ma’lumotlarga ega bo‘lishlari kerak.

Bugungi kunda ta`lim inson va jamiyatni rivojlantirishning eng muhim omiliga aylangan. O‘zbekiston hududida qadim zamonlardan beri fan va madaniyat rivojlanib kelayotgan davlatdir. Ilm-fanning ahamiyatiga o‘zbek mutafakkirlari yuksak baho bergan. Buyuk qomusiy olim Abu Rayhon Beruniy “Mineralogiya” asarida ta’kidlanishicha, mamlakat farovonligi undagi ilm-fanning ahvoli, taraqqiy etishiga ham bog‘liq. Allomaning fikricha, insonning eng katta baxti bilimga egaligidir, chunki unga aql berilgan. Baxtni ana shunday tushunishgina jamiyatda tinchlik va farovonlikka olib keladi: “Inson haqiqiy rohat-farog‘atga yetgani sari unga yetishga bo‘lgan intilishi kuchayib borgandagina o‘sha farog‘atni chin dildan his qiladi. Inson ruhi o‘zi bilmagan narsani anglaganida ham ana shunday holat ro‘y beradi”[5].

Ta`lim insonning ma`naviy va intellektual ehtiyojlarini va qobilyatini shakllantirishga ta`siri nuqtayi nazaridan uni o`zaro bog‘liq uch: shaxs, davlat va jamiyat nuqtayi nazaridan qarab chiqish qabul qilingan.

Shaxsiy darajada – bu insonning o`zligini to`la namoyon qilish, intellektual qobilyatlarini rivojlantirish imkoniyatidir. Ta`lim shaxsga o`zining ma`naviy ehtiyojlarini qondirish, hayotini to`laqonli va uyg‘un qilish imkonini beradi.

Davlat darajasida – shuni ta`kidlash kerakki, davlat mamlakat intellektual salohiyatini rivojlantirishdan manfaatdor.

Jamiyat darajasida - ta`lim alohida global ma`naviy qadriyatlarni shakllantirishga yo`naltirilgan bo`lishi kerak. Bu jamiyatning taraqqiy ettirishning qudratli omilidir. Jamiyatning intellektual rivojlanishi-ijtimoiy taraqqiyotning asosidir.

XULOSA

Ayni vaqtda ko‘plab mamlakatlarning “2030-yilgacha mo‘ljallangan ta’lim konsepsiyasida sifatli ta’lim qulayliklarini oshirish, ta’lim muassasalarining moddiy-texnik bazasi, o‘quv jarayonining asosini davlat ta’lim standartlari talablariga muvofiq rivojlantirish, yangi pedagog kadrlar avlodini tayyorlash, o‘qitish, ta’lim sohasida iqtisodiy mexanizmlarni takomillashtirish, imkoniyati cheklangan bolalarni jamiyatga integrasiyalash, iqtidorli bolalar va qobiliyatli yoshlarni aniqlash va qo‘llab-

quvvatlash, mintaqaviy mehnat bozorlarining malakali kadrlarga bo‘lgan talablarini qondirish va zamonaviy uzluksiz ta’lim tizimini shakllantirish kabi vazifalar belgilangan”[6].

O‘zbekistonda ta’limga jamiyatni isloh etish va yangilash siyosatini amalga oshirishning hal qiluvchi bo‘g‘ini sifatida alohida e’tibor qaratiladi. Ta’lim mamlakat iqtisodiyotini barqaror rivojlantirish, mamlakatni jahon hamjamiyatiga integrasiyalashning majburiy sharti deb hisoblanadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. https://president.uz/uz/lists/view/5774
2. Хартли Р. Передача информасии // Теория информасии и еуо приложения. – М.: Гос. изд. физ.-мат. лит., 1959
3. Xodjabayev F.D. Mirsanov U.M. Multimediali interaktiv kitoblarni yaratishda ispring dasturidan foydalanish Navoiy, 2016. – B. 12-13
4. Луи де Броил. По тропам науки. - М.: 1962., -317 с.
5. Ta’lim bo‘yicha Butunjahon forumi. Yakuniy hisobot. – Dakar, Senegal, 2000 yil 26-28 aprel
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020 yil 24 yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi. http://uza.uz